

Qo'chqarov Temirbek Baxromjon o'g'li  
Oriental universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası  
katta o'qituvchisi

## O'ZBEKISTON-ERON HAMKORLIK ALOQALARINING ZAMONAVIY BOSQICHI: HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasi va Eron Islom Respublikasi o'rtasidagi munosabatlarning 2021-2023-yillardagi sifat jihatidan yangi bosqichi ko'tarilganligi tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida O'zbekiston Prezidentining 2023-yil iyun oyidagi Eronga rasmiy tashrifi va uning natijasida qabul qilingan keng qamrovli hujjatlar to'plami turadi. Birlamchi manbalar asosida ikki davlat hamkorligining beshta ustuvor yo'nalishi - siyosiy-diplomatik muloqot, iqtisodiy-savdo aloqalari, ilm-fan va innovatsiya, transport-tranzit salohiyati hamda xavfsizlik sohasi ko'rib chiqiladi. Tahlil natijalari mazkur davrda ikki tomonlama hamkorlik epizodik xarakterdan strategik va institutsional darajaga o'tayotganini ko'rsatadi. Xususan, Toshkentda Eron innovatsiyalar va texnologiyalar uyining ochilishi hamda Trans-Afg'on temir yo'li loyihasi yangi bosqichning amaliy natijasi sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Eron, ikki tomonlama munosabatlar, mintaqaviy hamkorlik, iqtisodiy diplomatiya, ilm-fan va innovatsiya, transport koridorlari, Trans-Afg'oniston temir yo'li, Chobahor porti, xavfsizlik.

## СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП ПАРТНЕРСКИХ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАН-ИРАН: ПРИОРИТЕТНЫЕ ОБЛАСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА

**Аннотация.** В статье анализируется качественно новый этап развития отношений между Республикой Узбекистан и Исламской Республикой Иран в 2021-2023 годах. В центре исследования находится официальный визит Президента Узбекистана в Иран в июне 2023 года и принятый по его итогам комплексный пакет документов. На основе первичных источников рассматриваются пять приоритетных направлений сотрудничества двух государств: политико-дипломатический диалог, экономические и торговые связи, наука и инновации, транспортно-транзитный потенциал и сфера безопасности. Результаты анализа показывают, что в указанный период двустороннее сотрудничество переходит от эпизодического характера к стратегическому и институциональному уровню. В частности, открытие в Ташкенте Иранского дома инноваций и технологий, а также проект Трансафганской железной дороги оцениваются как практические результаты нового этапа.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Иран, двусторонние отношения, региональное сотрудничество, экономическая дипломатия, наука и инновации, транспортные коридоры, Трансафганская железная дорога, порт Чабахар, безопасность.

## THE MODERN STAGE OF UZBEKISTAN-IRAN PARTNERSHIP RELATIONS: PRIORITY AREAS OF COOPERATION

**Annotation.** This article analyzes the qualitatively new stage in the development of relations between the Republic of Uzbekistan and the Islamic Republic of Iran during the 2021-2023 period. The study focuses on the official visit of the President of Uzbekistan to Iran in June 2023 and the comprehensive package of documents adopted as its outcome. Drawing on primary sources, the paper examines five priority areas of bilateral cooperation: political-diplomatic dialogue, economic and trade ties, science and innovation, transport and transit potential, and the security domain. The findings of the analysis indicate that during this period, bilateral cooperation has been transitioning from an episodic nature to a strategic and institutional level. In particular,

*the opening of the Iranian House of Innovation and Technology in Tashkent, as well as the Trans-Afghan Railway project, are assessed as tangible outcomes of this new stage.*

**Keywords:** *Uzbekistan, Iran, bilateral relations, regional cooperation, economic diplomacy, science and innovation, transport corridors, Trans-Afghan Railway, Chabahar Port, security.*

**Kirish.** Sovuq urush tugaganidan so‘ng Markaziy Osiyo davlatlari mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldilar va mintaqadosh yirik davlatlar bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga kirishdilar. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi va Eron Islom Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar o‘zining tarixiy chuqurligi va geosiyosiy ahamiyati bilan alohida o‘rin egallaydi. Forsiy va turkiy sivilizatsiyalarning o‘zaro ta‘siri zaminida shakllangan madaniy-ma‘naviy yaqinlik ikki xalqni asrlar davomida bog‘lab kelgan. Biroq zamonaviy davlatlararo munosabatlar darajasida bu yaqinlik uzoq vaqt davomida o‘zining to‘liq amaliy salohiyatini namoyon eta olmadi. Aynan shu sababli so‘nggi yillardagi keskin faollashuv ilmiy tahlil obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixan Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo, ilm va madaniyat almashinuvi an‘analari zamonaviy hamkorlik uchun ham muhim ramziy va amaliy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston va Eron o‘rtasidagi rasmiy davlatlararo munosabatlar 1992-yilda - O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki davrda - o‘rnatilgan bo‘lsa-da, keyingi chorak asr mobaynida ular asosan iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalar bilan cheklangan, nisbatan past intensivlikdagi ko‘rinishda rivojlandi. 2017-yildan e‘tiboran O‘zbekistonda amalga oshirilgan tashqi siyosiy islohotlar va “ochiq va amaliy qo‘shnichilik” tamoyili ikki tomonlama aloqalarga yangi sifat va dinamika baxsh etdi. Ushbu yo‘nalishdagi eng yorqin voqea - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil iyun oyida Eronga amalga oshirgan yuqori darajadagi rasmiy tashrifi bo‘ldi[4]. Tashrif chog‘ida ikki davlat rahbarlari kengaytirilgan formatda muzokaralar o‘tkazib[2], har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar to‘plamini qabul qildilar[5].

Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekiston-Eron munosabatlarining 2021-2023-yillardagi yangi bosqichini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning asosiy yo‘nalishlari, harakatlantiruvchi omillari va istiqbollari birlamchi manbalar asosida ochib berishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi ilmiy savollarga javob izlanadi: mazkur davrda ikki tomonlama hamkorlikning qaysi sohalar ustuvor ahamiyat kasb etdi? Bu hamkorlikni avvalgi bosqichlardan sifat jihatidan farqlovchi xususiyatlar nimalardan iborat? Nihoyat, mintaqaviy geosiyosiy kontekst - xususan, Afg‘onistondagi vaziyat va Eronning xalqaro mavqeidagi o‘zgarishlar - ikki davlat yaqinlashuviga qanday ta‘sir ko‘rsatdi? Mavzuning dolzarbligi O‘zbekiston tashqi siyosatining mintaqaviy o‘zaro bog‘lanishga yo‘naltirilgan yangi strategiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, mavzuni o‘rganish nafaqat ikki tomonlama munosabatlar, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy va geoiqtisodiy transformatsiyasini tushunish uchun ham ahamiyatlidir.

Mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarda O‘zbekiston-Eron munosabatlari ko‘pincha umumiy mintaqaviy jarayonlar doirasida, yetarlicha tizimli bo‘lmagan tarzda yoritilgan. Ayni paytda 2021-2023-yillardagi keskin sifat o‘zgarishlari, xususan 2023-yilgi tashrif natijalari hali yetarli darajada ilmiy umumlashtirilmagan. Ushbu maqola mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, hamkorlikning turli sohalarini yagona tahliliy doirada birlashtirib ko‘rsatishga harakat qiladi. Maqola kirish, tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar hamda xulosadan iborat bo‘lib, tahlil qismida hamkorlikning beshta asosiy yo‘nalishi izchil ko‘rib chiqiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot sifat (kvalitativ) tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Asosiy usul sifatida birlamchi hujjatlarni tahlil qilish qo‘llanildi. Tadqiqotning manba bazasini bir necha turdagi materiallar tashkil etdi: rasmiy davlat hujjatlari va bayonotlari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining veb-sayti[2; 5], O‘zbekistonning Erondagi elchixonasi materiallari[6; 11]); Eron va xalqaro axborot agentliklarining xabarlari (IRNA, Tasnim, TASS, Tehran Times)[3; 4; 9; 10; 12; 13]; hamda transport-infratuzilma loyihalariga oid ixtisoslashgan nashrlar (Railway Gazette International[14], All India Radio[16]). Manbalarning bunday turli-tumanligi tahlil obyektivligini ta‘minlash va bir tomonlama talqindan saqlanish imkonini berdi. Manba bazasining

40 xronologik diapazoni 2020-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi, bu esa yangi bosqichning shakllanish dinamikasini izchil kuzatish imkonini beradi.

Tahlilda tavsifiy-analitik hamda tarixiy-qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi: ikki tomonlama munosabatlarning hozirgi holati ularning tarixiy rivojlanish konteksti - jumladan, 1992-yilda shakllangan dastlabki shartnomaviy asoslar - bilan qiyoslandi. Nazariy jihatdan tadqiqot "yumshoq kuch" (soft power), mintaqaviy o'zaro bog'lanish (regional connectivity) va iqtisodiy diplomatiya tushunchalariga tayanadi. Manbalarga tanqidiy yondashuv tamoyiliga rioya qilingan: ayrim rasmiy va axborot manbalarining targ'ibot xarakteri e'tiborga olinib, asosiy xulosalar bir necha mustaqil manba bilan o'zaro tasdiqlangan dalillarga asoslandi. Tadqiqotning ma'lum cheklovi shundaki, u asosan ochiq matbuot manbalariga tayanadi va imzolangan hujjatlarning to'liq matnlariga emas, balki ular haqidagi rasmiy xabarlariga asoslanadi. Ushbu cheklovni yumshatish maqsadida tahlilda rasmiy bayonotlar mustaqil axborot agentliklari materiallari bilan muntazam qiyoslab borildi.

Tadqiqotda 2021-2023-yillar davri alohida bosqich sifatida ajratilishi bir necha asosga ega: bu davrda Afg'onistondagi geosiyosiy vaziyat tubdan o'zgardi, Eronning mintaqaviy va xalqaro mavqeida muhim siljishlar yuz berdi hamda O'zbekiston tashqi siyosatida mintaqaviy o'zaro bog'lanish strategiyasi yetakchi o'ringa chiqdi. Shu sababli mazkur davr ikki tomonlama munosabatlarning oldingi, nisbatan sust bosqichidan sifat jihatidan farq qiladi. Tahlil davomida har bir yo'nalish bo'yicha dalillar bir necha manba bilan solishtirib tekshirildi, bu esa xulosalarning ishonchligini oshirishga xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlil natijalari O'zbekiston-Eron hamkorligining yangi bosqichini beshta o'zaro bog'liq yo'nalish bo'yicha umumlashtirish imkonini beradi. Quyida ushbu yo'nalishlar alohida-alohida tahlil qilinadi, so'ngra ularning o'zaro bog'liqligi umumlashtiriladi.

**Siyosiy-diplomatik muloqotning faollashuvi.** Yangi bosqich avvalo oliy darajadagi siyosiy muloqotning misli ko'rilmagan jadallashuvida namoyon bo'ldi. 2023-yil iyun oyidagi tashrif ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi bevosita muzokaralar bilan boshlanib, kengaytirilgan tarkibdagi rasmiy so'zlashuvlar bilan davom etdi[2]. Muzokaralar yakunida imzolangan hujjatlar to'plami savdo-iqtisodiyot, transport, ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarni qamrab oldi[5]. Tomonlar ikki tomonlama amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollarini batafsil muhokama qilib, munosabatlarni strategik darajaga ko'tarish niyatini bildirdilar[11]. Bu tashrif O'zbekiston rahbariyatining mintaqada ko'p vektorli, ammo amaliy natijaga yo'naltirilgan tashqi siyosatining mantiqiy davomi sifatida baholanishi mumkin[4]. Diplomatik muloqotning bunday intensivligi ikki davlat o'rtasida o'zaro siyosiy ishonchning sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi va keyingi sohaviy kelishuvlar uchun zarur siyosiy zamin yaratdi. Bundan tashqari, oliy darajadagi muloqotning muntazam tus olishi - oldingi yillardagi epizodik aloqalardan farqli ravishda - ikki davlat o'rtasida barqaror institutsional muloqot mexanizmlari shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu, o'z navbatida, imzolangan hujjatlarning amalga bajarilishini nazorat qilish imkonini kengaytiradi.

**Savdo-iqtisodiy hamkorligi.** Iqtisodiy hamkorlik yangi bosqichning markaziy o'zagini tashkil etdi. Tashrif doirasida ikki davlat iqtisodiy hamkorlikning turli jabhalarini qamrab oluvchi bir qator bitimlarni imzoladi[1]. Tadbirkorlik aloqalarini jonlantirish maqsadida Eron Savdo, sanoat, konlar va dehqonchilik palatasi (ICCIMA) tomonidan Eron-O'zbekiston biznes-forumi tashkil etildi. Forum ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o'rtasida bevosita aloqalar o'rnatish va aniq tijorat shartnomalarini muhokama qilish uchun maydon vazifasini o'tadi[3]. Bundan tashqari, tomonlar o'zaro savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish masalasini ko'rib chiqishga kelishdilar[12]. Erkin iqtisodiy zonalar tashabbusi hamkorlikni epizodik savdo bitimlaridan barqaror institutsional mexanizmlarga o'tkazishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Bundan tashqari, ikki davlatning Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ECO) doirasidagi ko'p tomonlama hamkorligi ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar uchun qo'shimcha mintaqaviy ramka vazifasini o'taydi. Umuman olganda, iqtisodiy yo'nalish ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasini ko'paytirish va o'zaro iqtisodiy bog'liqlikni mustahkamlash strategiyasini aks ettiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ikki davlat iqtisodlari ko'p jihatdan bir-birini to'ldiruvchi tabiatga ega: O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari, paxta tolasi va boshqa xomashyo resurslariga boy bo'lsa, Eron muhandislik, neft-kimyoy va texnologik mahsulotlar

bo'yicha salohiyatga ega. Bunday to'ldiruvchanlik savdo-iqtisodiy hamkorlikning obyektiv asosini tashkil etadi. Biroq amaliy savdo hajmining o'sishi bank-moliya tizimidagi cheklovlar va xalqaro sanksiyalar rejimi bilan bevosita bog'liq bo'lib qoladi.

**Ilm-fan, innovatsiya va texnologiya hamkorligi.** Yangi bosqichning eng o'ziga xos va istiqbolli yo'nalishlaridan biri ilm-fan, innovatsiya va texnologiya sohasidagi hamkorlik bo'ldi. Tashrif chog'ida O'zbekiston Prezidenti Eronning fan va texnika yutuqlari ko'rgazmasiga tashrif buyurdi; ko'rgazma Eronning xalqaro sanksiyalar sharoitida erishgan ilmiy-texnologik salohiyatini - jumladan biotexnologiya, nanotexnologiya va muhandislik sohasidagi yutuqlarini - namoyish etishga qaratilgan edi[6]. Mazkur yo'nalishdagi eng muhim amaliy natija - 2023-yil iyun oyida Toshkentda Eron innovatsiyalar va texnologiyalar uyining ("Iran House of Innovation and Technology") ochilishi bo'ldi[7; 8]. Ushbu institut ikki davlat o'rtasida texnologiya transferi, qo'shma tadqiqotlar va innovatsion mahsulotlarni bozorga olib chiqish uchun doimiy platforma vazifasini bajaradi. Tarixiy qiyosda bu jihat alohida ahamiyatga ega: O'zbekiston-Eron ilmiy-texnik hamkorligi 1992-yilda iqtisod va sanoat bilan birlashtirilgan yagona memorandum doirasida, "institutsional minimalizm" ko'rinishida boshlangan edi. 2023-yilga kelib esa bu hamkorlik mustaqil, ixtisoslashgan va doimiy institutsional shaklga ega bo'ldi. Bu O'zbekiston-Eron ilmiy hamkorligining bosqichma-bosqich chuqurlashib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. Bu yo'nalishning strategik ahamiyati shundaki, u nafaqat texnologik almashinuv, balki ikki davlat o'rtasidagi insoniy va ilmiy salohiyat aloqalarini mustahkamlaydi. Innovatsiyalar uyi kabi doimiy institutlarning tashkil etilishi hamkorlikni shaxsiy yoki vaziyatli aloqalarga emas, balki barqaror tashkiliy asosga qurish imkonini beradi. Bu jihat O'zbekistonning innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha milliy maqsadlari bilan ham uyg'unlashadi. Eronning sanksiyalar sharoitida mahalliy ishlab chiqarish va import o'rnini bosish yo'nalishidagi tajribasi O'zbekiston uchun muayyan amaliy qiziqish uyg'otishi mumkin, garchi bu tajribani mexanik ko'chirish maqsadga muvofiq bo'lmas-da. Demak, ilmiy-texnologik yo'nalish ham bilim almashinuvi, ham amaliy iqtisodiy hamkorlik nuqtai nazaridan ikki tomon uchun strategik qiymatga ega.

**Transport-kommunikatsiya va tranzit salohiyati.** Ikkala davlat ham dengiz yo'llariga bevosita chiqish imkoniyati cheklangan bo'lib, o'zaro bog'lanish va tranzit yo'nalishlari ular uchun strategik ahamiyatga ega. Shu bois transport-kommunikatsiya hamkorligi yangi bosqichning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Eng yirik loyiha - O'zbekistonni Afg'oniston orqali janubdagi dengiz portlariga ulashni ko'zlovchi Trans-Afg'oniston temir yo'li bo'lib, 2023-yil iyul oyida unga oid kelishuv imzolandi[14]. Bu yo'nalishning Eron infratuzilmasi bilan bog'lanish imkoniyati Xaf-Hirot temir yo'lining 2020-yilda ishga tushirilishi natijasida kengaydi: mazkur yo'l Afg'oniston hududini Eron temir yo'l tarmog'iga ulagan[15]. Bundan tashqari, Eronning Chobahor porti O'zbekiston uchun Hind okeaniga chiqishning muqobil yo'nalishi sifatida ko'rib chiqilmoqda hamda portdan birgalikda foydalanish bo'yicha Hindiston, Eron va O'zbekiston o'rtasida uch tomonlama ishchi guruh faoliyat yuritmoqda[16]. Mazkur loyihalar majmui Shimol-Janub xalqaro transport koridori doirasida O'zbekistonning geoiqtisodiy mavqeini mustahkamlash va tranzit imkoniyatlarini sezilarli kengaytirish salohiyatiga ega. Mazkur transport loyihalari faqat ikki tomonlama emas, balki ko'p tomonlama xarakterga ega bo'lib, mintaqaning bir qator davlatlari manfaatlarini birlashtiradi. Ular orqali O'zbekiston Fors ko'rfazi va Hind okeani portlariga eng qisqa quruqlik yo'nalishlaridan biriga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bu loyihalarning amalga oshirilishi Afg'onistondagi xavfsizlik vaziyati va katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga bevosita bog'liqligi sababli muayyan noaniqliklarni ham saqlab qoladi. Bunday muqobil yo'nalishlarning rivojlanishi O'zbekistonning tashqi savdo yo'llarini diversifikatsiya qilish va bitta tranzit yo'nalishiga qaramlikni kamaytirish strategiyasiga ham mos keladi.

**Xavfsizlik va mintaqaviy kontekst.** Ikkki tomonlama yaqinlashuvni mintaqaviy geosiyosiy o'zgarishlardan ajratib bo'lmaydi. 2021-yilda Afg'onistondagi hokimiyat almashinuvi va xalqaro kuchlarning mamlakatdan chiqib ketishi mintaqa xavfsizligi masalasini birinchi o'ringa olib chiqdi[9]. Bunday sharoitda O'zbekiston va Eron Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, terrorizm, ekstremizm va transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurashda umumiy manfaatga ega bo'ldilar. Aynan shu omil 2022-yil mart oyida ikki davlat o'rtasida xavfsizlik

42 sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi qo'shma hujjat imzolanishiga zamin yaratdi[13]. Shuningdek, Eronga nisbatan BMT qurol embargosining 2020-yilda bekor qilinishi[10] hamda mamlakatning mintaqaviy tashkilotlardagi ishtirokining kengayishi ikki tomonlama hamkorlik uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochdi. Demak, xavfsizlik omili yangi bosqichda iqtisodiy va transport hamkorligini to'ldiruvchi, ularning barqarorligini ta'minlovchi muhim jihat sifatida namoyon bo'lmoqda. Geosiyosiy nuqtai nazardan, Eronning "Sharqqa intilish" (Look East) yo'nalishi va O'zbekistonning mintaqaviy yetakchilik intilishlari ayni shu davrda o'zaro mos keldi. Ikkala davlat ham g'arbiy bosim va xalqaro noaniqliklar sharoitida mintaqaviy hamkorlikni diversifikatsiya qilishdan manfaatdor edi. Mana shu umumiy strategik mantiq ularning yaqinlashuvini yanada chuqurlashtirdi.

**Yo'nalishlarning o'zaro bog'liqligi.** Yuqorida ko'rib chiqilgan beshta yo'nalish bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro chambarchas bog'liq tarzda rivojlanmoqda. Siyosiy ishonchning oshishi iqtisodiy va ilmiy kelishuvlar uchun zamin yaratdi; transport loyihalari iqtisodiy hamkorlikning amaliy negizini ta'minlaydi; xavfsizlik sohasidagi umumiy manfaatlar esa butun hamkorlik tizimining barqarorligini kafolatlaydi. Shu ma'noda 2021-2023-yillardagi yangi bosqichni alohida bitimlar yig'indisi emas, balki yaxlit, ko'p qatlamli strategik yaqinlashuv jarayoni sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Aynan shu yaxlitlik mazkur bosqichni oldingi davrlardan tubdan ajratib turadi va uni ikki davlat munosabatlari tarixida sifat jihatidan yangi pog'ona sifatida belgilaydi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tahlil natijasida O'zbekiston-Eron munosabatlarining 2021-2023-yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Ushbu bosqich bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, hamkorlik epizodik va past intensivlikdagi aloqalardan keng qamrovli, ko'p sohali va institutsional darajaga o'tdi. 2023-yil iyun tashrifi natijasida qabul qilingan hujjatlar to'plami buning yaqqol dalilidir. Ikkinchidan, ilm-fan va innovatsiya sohasi hamkorlikning yangi, ixtisoslashgan yo'nalishi sifatida shakllandi - Toshkentdagi Eron innovatsiyalar va texnologiyalar uyi bu jarayonning institutsional timsolidir. Uchinchidan, transport-tranzit yo'nalishi (Trans-Afg'oniston temir yo'li, Chobahor porti) ikki davlatni geoiqtisodiy jihatdan bog'lovchi strategik omilga aylandi. To'rtinchidan, mintaqaviy xavfsizlik masalalari, ayniqsa Afg'oniston omili, ikki davlat yaqinlashuvining muhim harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qildi. Bu omillarning yig'indisi shuni anglatadiki, O'zbekiston-Eron yaqinlashuvi tasodifiy yoki konyunktura xarakteridagi hodisa emas, balki ikki davlatning uzoq muddatli milliy manfaatlariga asoslangan ongli strategik tanlovdir.

Tarixiy qiyosda alohida ahamiyatga ega jihat shundaki, 1992-yilda iqtisod va sanoat bilan birlashtirilgan yagona memorandum doirasida boshlangan ilmiy-texnik hamkorlik 2023-yilga kelib mustaqil institutsional shaklga ega bo'ldi. Bu O'zbekiston-Eron munosabatlari rivojlanishining uzluksiz, ammo bosqichma-bosqich chuqurlashib borayotgan tabiatini tasdiqlaydi. Nazariy jihatdan ushbu jarayon mintaqaviy o'zaro bog'lanish va "yumshoq kuch" konsepsiyalari Markaziy Osiyo-Eron munosabatlarini tushuntirishda samarali tahlil vositasi bo'la olishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, hamkorlikning amaliy natijadorligi ko'p jihatdan mintaqaviy barqarorlik, xalqaro sanksiyalar rejimi va transport infratuzilmasini moliyalashtirish masalalariga bog'liq bo'lib qoladi. Kelgusi tadqiqotlarda 2023-yilda qabul qilingan hujjatlar to'plamining amalda bajarilish darajasini empirik baholash hamda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasini o'rganish istiqbolli ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur yaqinlashuvning kelajagi O'zbekiston tomonidan yuritilayotgan ko'p vektorli tashqi siyosat doirasida boshqa yirik hamkorlar bilan munosabatlarni muvozanatlash qobiliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Eron bilan hamkorlikning chuqurlashuvi mintaqaviy o'zaro bog'lanishni kuchaytirsa-da, uning amaliy salohiyati global va mintaqaviy konyunkturaga, jumladan sanksiyalar rejimi va energetika bozoridagi o'zgarishlarga sezgir bo'lib qoladi. Binobarin, ushbu munosabatlarni uzoq muddatli, barqaror va o'zaro manfaatli asosga qo'yish ikki davlat oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Umuman, 2021-2023-yillardagi tajriba mintaqaviy hamkorlikning siyosiy iroda va institutsional mexanizmlar uyg'unlashganda nisbatan qisqa muddatda sezilarli natijalar berishi mumkinligini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Iran and Uzbekistan sign economic cooperation agreements // The Caspian Post. – 19.06.2023. – URL: <https://caspianpost.com/en/post/iran-and-uzbekistan-sign-economic-cooperation-agreements>.
2. Uzbekistan and Iran delegations held talks in expanded format // President of the Republic of Uzbekistan. – 18.06.2023. – URL: <https://president.uz/en/lists/view/6433>.
3. ICCIMA hosts Iran-Uzbekistan business forum // Tehran Times. – 17.06.2023. – URL: <https://www.tehrantimes.com/news/485844/ICCIMA-hosts-Iran-Uzbekistan-business-forum>.
4. Uzbek president in Iran for high-profile talks // Tasnim News. – 18.06.2023. – URL: <https://www.tasnimnews.com/en/news/2023/06/18/2912638/uzbek-president-in-iran-for-high-profile-talks>.
5. Package of documents for further developing Uzbekistan-Iran comprehensive cooperation adopted // President of the Republic of Uzbekistan. – 18.06.2023. – URL: <https://president.uz/en/lists/view/6434>.
6. Uzbek president visits exhibition of Iran's science and technology achievements // Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Islamic Republic of Iran. – 19.06.2023. – URL: <http://www.uzbekembassy.ir/>.
7. Usmonova N. Iran House of Innovation and Technology opens in Tashkent // Uza. – 20.06.2023. – URL: [https://www.uza.uz/en/posts/iran-house-of-innovation-and-technology-opens-in-tashkent\\_494904](https://www.uza.uz/en/posts/iran-house-of-innovation-and-technology-opens-in-tashkent_494904).
8. Iranian center for innovation and technology opened in Tashkent // Tehran Times. – 18.06.2023. – URL: <https://www.tehrantimes.com/news/485896/Iranian-center-for-innovation-and-technology-opened-in-Tashkent>.
9. Raisi A. Amerikaning Afg'onistondagi mag'lubiyati xavfsizlik va tinchlik uchun imkoniyatga aylanishi kerak [forscha tilida] // IRNA. – 16.08.2021. – URL: <https://www.irna.ir/news/84439041/>.
10. Iran announces termination of UN arms embargo // Tehran Times. – 18.10.2020. – URL: <https://www.tehrantimes.com/news/453652/Iran-announces-termination-of-UN-arms-embargo>.
11. Presidents of Uzbekistan and Iran discussed prospects of developing bilateral practical cooperation // Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Islamic Republic of Iran. – 19.06.2023. – URL: <http://www.uzbekembassy.ir/>.
12. Iran, Uzbekistan to consider establishing free economic zones — agency // TASS. – 18.06.2023. – URL: <https://tass.com/world/1634611>.
13. Iran, Uzbekistan sign joint security cooperation document // Tehran Times. – 09.03.2022. – URL: <https://www.tehrantimes.com/news/470887/Iran-Uzbekistan-sign-joint-security-cooperation-document>.
14. Trans-Afghanistan railway agreement signed // Railway Gazette International. – 20.07.2023. – URL: <https://www.railwaygazette.com/infrastructure/trans-afghanistan-railway-agreement-signed/64551.article>.
15. Fallahi I. Khaf-Herat railway inaugurated // Tehran Times. – 11.12.2020. – URL: <https://www.tehrantimes.com/news/455618/Khaf-Herat-railway-inaugurated>.
16. Second trilateral working group meeting between India, Iran and Uzbekistan on joint use of Chabahar port // All India Radio. – 14.12.2021. – URL: <https://newsonair.gov.in/Main-News-Details.aspx?id=431532>.